

TALABALARDA NUTQ USLUBIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Botirova Sevara Mamurovna

*NamDPI Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent.
Gmail: sevarabotirova111@gmail.com Tel: +998 070 21 85
ORCID: 0009-0009-7479-7765*

Annotatsiya: mazkur maqola pedagoglarning ta'lim berishda nutqiy-kommunikativ muammolaridan biri bo'lgan nutq stilistikasini (nutq uslubi) qo'llashdagi muammolarining pedagogik yechimlarini ishlab chiqishga va faol qo'llanuvchi dars metodikalari orqali nutqiy uslublarni ta'limning oliy ta'lim bosqichida tahsil oluvchilar va professor-o'qituvchilar uchun ko'rib chiqishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot davomida tadqiqot maqsadiga erishishda kerakli bo'lgan interfaol va innovatsion dars texnikalaridan (rolli o'yinlar, sinkveyn, guruhli debat) foydalanilgan. Mavzu pedagogik nutqni ifodalashdagi muammolar yuzasidan tadqiqot olib borishi bilan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlarning universal bilimlarni o'rgatishga eng mos keluvchi ekanligidan kelib chiqib, tarix, adabiyot va falsafa fanlariga ko'proq e'tibor qaratilganda yuqori samaradorlikka erishilishi mumkinligini ko'rsatdi hamda nutqiy uslubiyaning shakllanishida innovatsion dars metodikalari bilan bir qatorda o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiruvchi xilma-xil nutqiy uslubda yozilgan matnlar bilan ishlash orqali og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishning zarurligini ko'rsatdi. Xulosa sifatida tadqiqot nutqni ifodalashdagi muammolarning sabablarini va ularni barataraf etuvchi choralarni yuzasidan tavsiyalarni pedagogik jarayonlarga joriy etish yuzasidan takliflarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: nutqiy uslublar, interfaol metodlar, kommunikativlik, rolli o'yinlar, og'zaki nutq, intellektuallik, ilmiy nutq uslubi, publitsistik uslub, so'zlashuv uslubi.

PEDAGOGICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF STUDENT SPEECH STYLE

Abstract: this article is aimed at developing pedagogical solutions to the problems of teachers in using speech stylistics (speech style), which is one of the speech-communicative problems in teaching, and at considering speech styles for students and professors at the higher education stage of education through actively used teaching methodologies. During this study, interactive and innovative teaching techniques (role-playing games, syncwine, group debate) were used to achieve the research goal. The topic is also relevant in that it conducts research on the problems of expressing pedagogical speech.

The results of the study showed that social sciences are most suitable for teaching universal knowledge in higher education institutions, and that high efficiency can be achieved by paying more attention to history, literature and philosophy, and showed the need to develop

oral and written speech by working with texts written in a variety of speech styles that develop students' cognitive abilities, along with innovative teaching methods. In conclusion, the study presents proposals for introducing into pedagogical processes the causes of problems in speech expression and recommendations for measures to eliminate them.

Keywords: *speech styles, interactive methods, communicativeness, role-playing games, oral speech, intellectuality, scientific speech style, publicistic style, conversational style.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ СТИЛЯ РЕЧИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: *Целью данной статьи является разработка педагогических решений проблем педагогов в использовании стилистики речи (стиля речи), что является одной из речекоммуникативных проблем в обучении, а также рассмотрение стилей речи студентов и преподавателей вузов посредством активно используемых методик обучения. В ходе данного исследования для достижения цели исследования использовались интерактивные и инновационные методы обучения (ролевые игры, синквейн, групповые дебаты). Тема актуальна еще и потому, что в ней исследуются проблемы выражения педагогического дискурса.*

Результаты исследования показали, что для преподавания универсальных знаний в высших учебных заведениях наиболее подходят общественные науки, большее внимание можно уделить истории, литературе, философии, а также, помимо инновационных методов обучения, необходимо развитие устной и письменной речи посредством работы с текстами, написанными в различных речевых стилях, развивающими познавательные способности студентов. В заключение исследования даны предложения по внедрению в педагогический процесс причин возникновения проблем в выражении речи и рекомендации по мерам их устранения.

Ключевые слова: *стили речи, интерактивные методы, коммуникативность, ролевые игры, устная речь, интеллектуальность, научный стиль речи, публицистический стиль, разговорный стиль.*

KIRISH

Ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan birga ularni ifodalashni bilish ham birdek muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda pedagogik kommunikatsiyaning yaxshi bo'lmasligi bir qator kamchiliklarni yuzaga chiqaradi. Tahsil oluvchilar, ayrim hollarda, hatto pedagoglarning faoliyatida ham yozma va og'zaki nutqni ifodalash nomutanosib rivojlanadi, mavjud bilimlarni nutqiy qo'llash va yetkazib berishda uslubiy xatoliklarga yo'l qo'yiladi va nutqiy ta'sirchanlik va pedagogik funksiyalarning muammolari sifatida ta'lim muammolaridan biri sifatida saqlanib qolaveradi. Mazkur tadqiqot pedagogik nutqni ifodalashda uchraydigan

uslubiy muammolarni bartaraf etishda ijtimoiy fanlar doirasida tadqiqotlar o'tkazadi va fanning boshqa tarmoqlarida nutqiy uslubiyatni yaxshilovchi metodikalarni o'rganib chiqmaydi. Tadqiqotning maqsadi o'quvchi-talabalardagi nutq uslublarini o'zlashtirishga yordam berish va muammolarning sabab-oqibatlarini yoritib berishdir. Tadqiqot natijalari yuzasidan muayyan natijalar ham ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik nutqni ifodalashga doir izlanishlar yurtimizda T.Qudratov, N.Muslimov, S.Botirova, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev kabi tadqiqotchilarning ilmiy faoliyatida yoritib betrilgan. S.M.Botirovaning "O'zbekiston tarixini o'rganish jarayonida o'quvchilarda kommunikatsiya va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish texnologiyasi" monografiyasi mazkur maqola mavzusi yuzasidan chuqur ilmiy yondashuvlar beradi. Jahon miqyosida mavzuning muammolari yuzasidan o'rganishlar N.Kalinina, Y.Lotman, I.Robert, Janet G.Donald kabi pedagog-tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodlari. Metodik jihatdan tadqiqot oliy ta'lim muassasalari talabalarida interaktiv dars o'tish metodlarini qo'llash orqali o'rganishlar amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunda ko'ngilli tarzda tanlab olingan turli o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan 25 nafar talabalar tanlab olinadi. O'rganish natijalari jarayonlari avvalida va so'nggida tahlil qilinib taqqoslanadi va tadqiqotda qo'llangan uslublar qay darajada samarali bo'lganligi yoki samarasiz bo'lgani tahlil etiladi. Interfaol metodlardan rolli o'yinlar, kreativlikni oshirishga undovchi metodlar qo'llanadi va metodlardan tashqari mahsus adabiyotlar, topshiriqlardan ham foydalanish kerak bo'ladi. O'rganishlar davomida tizimli tahlil, gnoseologik, metodologik, stilistik yondashuvlarga e'tibor berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inson aqliy qobiliyati ma'lumotlarni qabul qilishda, tushunish va uni ifodalashda kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishidagi farqalanishlar sababli individual rivojlanish xususiyatlariga ega. [Tilning kelib chiqishining](#) umumiy muammosi bilan bog'liq bo'lsa-da, insonning o'ziga xos nutq qobiliyatining [rivojlanishi](#) ilmiy tadqiqotning alohida va ko'p jihatdan alohida sohasiga aylandi. [1] Bunda fiziologik muammolar bilan bir qatorda ta'lim olish

jarayonidagi metodik kamchiliklar ham bunga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarda nutqiy qobiliyat bilan bog'liq muammolar ham pedagogik jihatdan ta'lim samaradorligiga putur yetkazishi mumkin bo'lgan muammolardan biridir. Ushbu nutqiy-kommunikativ muammolardan biri ta'lim oluvchilarda nutq so'zlashda uslubiy kamchiliklarga yo'l qo'yilishi bilan bog'liq. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi. [2] Ma'lumki, nutq ijtimoiy hayotning qaysi sohasiga murojaat etilishiga doir bo'lishiga ko'ra turfa xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Og'zaki so'zlashuv uslubi ijtimoiy hayotda eng ko'p uchrovchi va jargonlar va shevalarni ham o'z ichiga oluvchi muloqot uslubi bo'lib, jamiyatda keng qo'llaniladi. Binobarin, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ilmiy, publitsistik, badiiy, rasmiy nutqiy uslublardan ham keng foydalaniladi. Ta'limning muhim vazifalaridan biri esa, ta'lim oluvchilarning barcha nutq uslublaridan o'rinli foydalana olishga o'rgatish deyish mumkin. Nutqning turli uslublaridan foydalanish va o'zlashtirish uchun eng qulay fanlar ijtimoiy fanlar xisoblanadi. Universal bilimlar berishga mos kelgani sababli tarix, adabiyot, falsafa kabi fanlaridan foydalangan holda tadqiqot o'tkazilishi mumkin.

Nutqiy uslubiyatni qo'llashda samaradorlikka erishish uchun ko'ngilli tarzda tanlab olingan ta'lim oluvchilarga biror mavzu yuzasidan ilmiy tilda berilgan qisqa ilmiy mavzudagi ma'lumot beriladi va ushbu mavzular biror shaxsning avtobiografiyasi yoki tarixiy voqea bo'lishi maqsadga muvofiq. Har bir o'quvchiga alohida berilgan listga tushungan ma'lumotlarini ilmiy tildan boshqa tillarda ifodalab qaytadan yozish so'raladi. Tahlil natijalari yuzasidan olingan xulosalar har bir nutq uslubiyati doirasida qay darajada qatnashuvchilarning bilimlarini ifodalay olishlariga qarab alohida o'rganib chiqiladi va o'rtacha natijalar sir tutiladi. Dastlabki natijalar yuzasidan muhim xulosalar chiqariladi va bunda natijalarning shaffofligini ta'minlash uchun qatnashchilar yuqori o'zlashtiruvchilar yoki passiv o'zlashtiruvchilardangina iborat bo'lib qolmasligiga e'tibor berish zarur.

Tarix darslarida tarixiy voqealar yuzasidan insholar yozish va mavzuni bayon etishda publitsistik maqolalar tayyorlashga o'rgatish orqali o'quvchilarni fikr bayon

etishning turli shakllariga o'rgatish mumkin. O'quvchilarga aynan bir xil mazmundagi va nutq bayon etish uchun turli uslublarda berilgan matnlar berib ularning solishtirib, farqli va qisman o'xshash jihatlari tushuntirib boriladi. Ko'nikmalar shakllantirib borilishi bilan o'quvchilar dastlabki sinovlarda yo'l qo'ygan kamchiliklarini anglab boradilar. O'qituvchi bunda tadqiqotni olib boruvchi sifatida qatnashchilarni to'g'ri yo'naltirishi lozim. Shu bilan birga, mavzudagi tarixiy ma'lumot, dalillar bilan nazariyaning o'rtasidagi muvozanat uyg'un saqlanib qolishiga e'tibor beriladi. [3] Tanlab olingan fan bo'yicha ma'lumotlar har bir dars uchun qisqa va nutq uslubining barcha turlarida berilganidek, tushunarli bayon etilishi zarur.

Tadqiqot qatnashchilarining nutqiy-kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiruvchi bir qator pedagogik uslublardan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini tashkillashtirish jarayonning navbatdagi va muhim qismidir. Interaktiv dars metodologiyasi yordamida pedagogik nutq muammolari bilan ishlash masalalari yuzasidan yurtimizda N.Bekmirzayev N.Qung'urov R.Begmatov, E.Tojiyev, N.Mahmudov, R.Jumaniyozov Kabi pedagoglarning ilmiy tadqiqotlarida yoritib berilgan. [4] An'anaviy dars uslublaridan ko'ra interfaol dars usublari orqali yondashuv bunda nisbiy afzallik beradi. Chunki an'anaviy metodlar qatnashchilarda ijodkorlik va tashabbuskorlikning cheklanishiga sabab bo'lishi ehtimoli tadqiqotdan kutilayotgan natijalarni to'laqonli yuzaga chiqarmasligi mumkin. Taniqli olim N.A.Muslimovning ta'kidlashicha, "Shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali amalga oshirish uchun talabalar zarur darajada kommunikativ kompetentlikka ega bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'zaro ta'sir jarayonlariga moslashuvchan bo'lishi, kommunikativ texnologiyalarni qo'llaganda talabalar va o'qituvchi o'zaro bir-birini tushinishi talab etiladi" [5]

Sinkveyn metodi orqali mavzularni tushuntirish o'quvchilarga yuklanganda o'quvchilar tayyorlanib kelgan mavzularini qisqa jumalarda tushuntirishni va batafsil bayon etish orqali nutqlarini nazorat qilish va uni vaqt va auditoriya talablariga mos tarzda yetkazishni o'zlashtiradilar. Bir mavzuning rejaları turli bayon usublari bilan tushuntirilishi davomida o'quvchilar nutqning mazmuniy farqlanishlarini yanada yaxshi anglay boshladilar. Sinkveyn metodida o'qituvchi

o'quvchilardan topshiriqlar yuzasidan yozma javoblarni ham qabul qilishi mumkin. Bunda ma'lum vaqt limiti belgilanadi va dars yuzasidan belgilangan topshiriqlar mutanosib ravishda taqsimlab chiqiladi.

Rolli o'yin metodi qo'llanganda o'qituvchi adabiyot darsida biror badiiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxsning obrazini shakllantirilishi va uning nomidan nutq matni tayyorlashni qo'shimcha dars mashg'uloti sifatida berishi mumkin. Bunda o'rganuvchilarning monologik nutqi va muloqotda obrazga kirishuvchanlik va nutqiy madaniyatning rivojlanishiga imkon paydo bo'ladi. Rolli o'yinlar sahna ko'rinishlari va ma'rifiy tadbirlar qo'llanganda yanada o'quvchilarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Biroq bunday metod har bir dars mashg'ulotida emas, mazmunan eng mos kelganda va ayrim fanlarning ma'lum mavzularida qo'l kelishi mumkin. Rolli o'yin metodi og'zaki nutq uslubiyatini oshirib, turli obrazlarini gavdalantirish barobarida o'quvchilar nutqiy mahorati oshsada, yozma nutqni rivojlantirishda o'quvchilarga insholar va maqolalar yozishga yo'naltirish orqali turli bayon uslublariga moslashtirilishi kerak bo'ladi. "Shaxslararo munosabatga kirishish jarayonida xulq-atvorning o'ziga xos jihatlari, birgalikdagi harakatlar, guruhli faoliyatning rivojlanishi, rollar, nuqtayi nazarlarning o'ziga xosligi ham muhim ahamiyat kasb etadi" [6]

Falsafa fanida esa, guruhli debat uslubidan foydalanish o'quvchilardagi nutqiy uslublar yuzasidan uchraydigan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Bunda qatnashuvchilar bir necha guruxlarga bo'linib baxsli muammoga nisbatan mulohaza bildiradilar. O'qituvchi dars avvalida jamoalarga bo'linishni amalga oshiradi va jamoa sardorlariga tanlash uchun imkoniyat beradi. Guruh sardorlari biror mavzu yuzasidan o'z pozitsiyalarini va qaysi nutq uslubida fikrlarini ifodalashlarini taxminiy belgilangan tarqatma materialdan tanlab oladilar. Bahs boshlanishi bilan jamoa a'zolari mavzu yuzasidan guruh bilan kelishgan holda o'z mulohazalarini kerakli nutq uslubida bayon etadilar. Qaysidir guruhga ilmiy va yoki qaysidir biriga rasmiy yoki boshqa uslub mos kelishiga ko'ra bayon etganlaridan so'ng o'qituvchi yakunda qatnashchi guruhlarning qay darajada ilmiy asosda mavzuni tushuntira olganlari va belgilangan doirada nutqiy uslubiyatning samarador yetkazilganiga ko'ra baholashni amalga oshiradi.

Mazkur mashg'ulotlar bir chorak yoki oylar davomida o'tkazilishidayoq to'g'ri qo'llansa, natijalarini ko'rsatadi. Chunki o'quvchilarda bilim yetarli darajada bo'lganda bu jarayon tezlikda samarasini beradi. Biroq intellektual jihatdan yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmagan qatnashchilarda bu jarayon murakkablikda kechadi. Bilim doirasining yetarli darajada emasligi uchun ham ularning nutqida to'xtalishlar, mavzu doirasidan chiqib ketish va boshqa muammolar odatiy so'zlashuv uslubida ham muntazam qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ham so'z boyligining rivojlantirilishi va innovatsion dars uslublariga moslashuvchanlik va kreativlik ham ushbu tadqiqot natijalarining qay darajada samarali bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

Yakunda qatnashchilardan yakuniy sinov o'tkazilib, odatdagi sinovlardan murakkab tuzilgan topshiriq berib dastlab og'zaki, so'ng yozma tarzda natijalar olinadi va ham individual, ham jamoaviy o'rtacha natijalar olinib dastlabki, joriy natijalar davomida yuz bergan o'zgarishlar bilan taqqoslanadi.

XULOSA

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy fanlar pedagoglarning o'quvchi-talabalar kommunikativ mahoratini oshirishga yordam beradi. Ularning o'rganish sohalari kengligi nutqning barcha shakllariga moslashuvchanlikda qulaylik yaratadi. Mashg'ulotlar boshlanishidagi, joriy hamda yakuniy tekshiruvlar asta-sekinlik bilan o'quvchilarning pedagogik nutqiy moslashuvchanlikka ega bo'lganini ko'rsatdi. Eng samarali rivojlantiruvchi texnika bunda turli nutq uslublarida berilgan matnlarni solishtirish va moslashtirishni talab qiladigan topshiriqlar bo'ldi. Nutq uslublaridan rasmiy, badiiy va publitsistik bayon uslublari og'zaki va ilmiy bayon uslublariga qaraganda murakkab ekanligi kuzatildi. Shunday bo'lsada yakunda qatnashchilar ularni mazmuniy va shakily jihatdan farqlashni va shakllantirish ko'nikmasini o'zlashtirdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hockett, Charles F. (1960). "The Origin of Speech" (PDF). *Scientific American*. **203** (3): 88–96. Bibcode:1960SciAm.203c..88H.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq> [Murojaat qilingan sana: 13.01.25]

3. S. Botirova. O'zbekiston tarixini o'rganish jarayonida o'quvchilarda kommunikativ va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish texnologiyasi. – Namangan: / monografiya / Namangan: "SUNRISE-PRO", 2024. – Bet 36.
4. S. Botirova. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining pedagogik nutqini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'рни. Society and innovations Issue – 5 № 5 (2024) / ISSN 2181-1415. 269-bet.
5. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: Фан, 2004. – бет 126.
6. Калинина Н.В. Развитие социальной компетентности школьников в образовательной среде: психолого-педагогическое сопровождение. – Ульяновск: УИПК ПРО, 2014. – С. 122.